ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

Boshlang‘ich ta’limda baholashning zamonaviy usullarini tatbiq etish

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti,
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
4-kurs talabasi
Nazimjonova Mo‘mina Nizomiddin qizi
nazimjonovamomina@gmail.com
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.22727349

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimini baholashning zamonaviy usullaridan foydalanish masalalari yoritilgan. An’anaviy baholash bilan bir qatorda formativ baholash, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, portfolio, formativ va summativ baholashning asosiy farqlari, raqamli platformalar orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.
Kalit so‘zlari: Boshlang‘ich ta’lim, baholash, zamonaviy baholash, formativ baholash, summativ baholash, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, portfolio, formativ va summativ baholashning asosiy farqlari, raqamli platformalar orqali baholash, raqamli platformalarda baholashning ta’limga ta’siri.

Аннотация. В данной статье рассматривается применение современных методов оценки знаний учащихся в начальной школе. Автор анализирует традиционные методы оценки наряду с формирующим оцениванием, самооценкой, взаимной оценкой и методом портфолио, а также освещает ключевые различия между формирующим и итоговым оцениванием и роль цифровых платформ в развитии знаний, умений и компетенций учащихся.
Ключевые слова: Начальное образование, оценивание, современное оценивание, формирующее оценивание, суммативное оценивание, самооценивание, взаимооценивание, портфолио, ключевые различия между формирующим и суммативным оцениванием, оценивание с использованием цифровых платформ, влияние оценивания на базе цифровых платформ на образование.

Abstract.. This article examines the use of modern methods for assessing student knowledge in primary education. It analyzes traditional assessment alongside formative assessment, self-assessment, peer assessment, and portfolios; explores the key differences between formative and summative assessment; and discusses the role of digital platforms in developing students' knowledge, skills, and competencies.
Keywords: Primary education, assessment, modern assessment, formative assessment, summative assessment, self-assessment, peer assessment, portfolio, key differences between formative and summative assessment, assessment via digital platforms, impact of digital platform-based assessment on education.

XXI asr axborot jamiyatida ta’limning asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki "o‘rganishni o‘rganish" ko‘nikmasini shakllantirishdir. Shu sababli, ta’lim natijalarini o‘lchash tizimi o‘zining an’anaviy "nazorat" funksiyasidan "rivojlantirish" funksiyasiga o‘tmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘RQ-637-sonli Qonunining 28-moddasida ta’lim oluvchilarning bilimini baholashda adolatlilik, shaffoflik va xolislik tamoyillari qat’iy belgilab qo‘yilgan.[1]

[1] O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.(12-15-betlar)

Benjamin Blum o‘zining mashhur taksonomiyasida ta’kidlaganidek:

"Agar o‘quvchi o‘zining qayerda xato qilayotganini va qanday qilib yaxshilanishi mumkinligini baholash orqali tushunmasa, bu jarayon shunchaki vaqt sarflashdir" [2]

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini baholay olish ko‘nikmalarini shakllantirishni ham talab etmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan baholash tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida baholash alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davrda bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabati, o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi va ta’lim faoliyatiga motivatsiyasi shakllanadi. Agar baholash faqat xatolarni aniqlash yoki ball qo‘yish vositasi sifatida qo‘llansa, o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishi pasayishi mumkin. Aksincha, baholash rivojlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi xarakterga ega bo‘lsa, o‘quvchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglaydi hamda keyingi faoliyatini takomillashtirishga intiladi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’limda zamonaviy baholash usullarini tatbiq etish o‘quvchilarning ta’lim natijalarini xolis aniqlash, ta’lim sifatini oshirish va individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’limda baholashning ahamiyati.

Baholash — o‘quvchining egallagan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini aniqlash, tahlil qilish hamda keyingi ta’lim faoliyatini rejalashtirishga xizmat qiluvchi jarayondir. Boshlang‘ich sinflarda baholash quyidagi vazifalarni bajaradi:

o‘quvchining bilim darajasini aniqlash;

o‘quvchining individual rivojlanishini kuzatish;

o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash;

o‘quvchini rag‘batlantirish;

o‘quvchida o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Zamonaviy ta’limda baholash natijani qayd etish bilangina cheklanmaydi. U o‘quvchini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Shu sababli baholash jarayonida “Nimani biladi?” degan savol bilan bir qatorda “Nimani o‘rgandi?”, “Qanday qiyinchilikka duch keldi?” va “Keyingi bosqichda nimani yaxshilashi kerak?” kabi savollarga ham javob izlanadi.

Zamonaviy baholash usullari

Formativ baholash.

Formativ baholash o‘quv jarayoni davomida amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi o‘quvchining hozirgi bilim darajasini aniqlash va unga keyingi rivojlanishi uchun tavsiya berishdir. Formativ baholashda o'quv maqsadiga erishish uchun zarur bo‘lgan qadamlar (mexanizmlar)aniq belgilanadi. Biroq bunga erishish uchun baholash yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. Bu jarayonda o‘quvchilar orasida o‘z-o‘zini baholash va hamkorlik qilishga katta e'tibor qaratiladi va rag‘batlantiriladi. Masalan, dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarga qisqa savollar beradi, topshiriqlarni kuzatadi, xatolarni tahlil qiladi va darhol fikr-mulohaza bildiradi.

Boshlang‘ich sinflarda formativ baholashning sodda shakllaridan foydalanish mumkin:

“Svetofor” usuli;

qisqa savol-javob;

kartochkalar orqali baholash;

o‘quvchining og‘zaki javobiga izoh berish.

Masalan, “Svetofor” usulida yashil rang-“mavzuni yaxshi tushundim”, sariq rang “yana tushuntirish kerak”, qizil rang esa - “mavzuni tushunmadim” mazmunini anglatishi mumkin. Bu usul o‘qituvchiga sinfning umumiy holatini tezda aniqlash imkonini beradi. Formativ baholashning eng yaxshi turi bu jalb qilish, o‘quvchilarlarning kuchli tomonlariga moslashish va

[2] Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longmans, 1956.(185-bet)

qo‘shimcha o‘qitish yoki yordamga muhtoj bo‘lgan sohalarni aniqlash. Formativ baholash o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun juda ko‘p ahamiyatga ega bo‘lgan tasdiqlangan o‘quv vositasidir.[3]

Summativ baholash

Summativ baholash ma’lum bir mavzu, bo‘lim yoki ta’lim davri yakunida o‘quvchining erishgan natijasini aniqlashga qaratiladi. Nazorat ishlari, testlar, yakuniy topshiriqlar va boshqa baholash shakllari summativ baholash vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin. Biroq boshlang‘ich ta’limda summativ baholashni o‘quvchiga bosim o‘tkazadigan vositaga aylantirmaslik muhim. Yakuniy natija bilan birga o‘quvchining dars davomida ko‘rsatgan faolligi va rivojlanish dinamikasi ham e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

Formativ va summativ baholashning asosiy farqlari.

1. Formativ baholash o‘quy jarayonida talab qilinadigan ma’lumotlarni taqdim etadigan, o‘qitishni moslashtiradigan turli xil baholash tartib-qoidalarini anglatadi. Summativ baho o‘quvchilarning bilimini baholash standarti sifatida belgilangan.

2. Formativ baholash diagnostik xususiyatga ega, summativ baho esa baholovchi hisoblanadi.

3.Formativ baholash-bu o‘rganish uchun baholash, summativ baholash- bu ta’limni baholash.

4. Formativ baholash oylik yoki chorakda doimiy ravishda amalga oshiriladi. Boshqa tomondan, summativ baholash faqat kurs tugaganidan so‘ng ma’lum vaqt oralig‘ida amalga oshiriladi.

5. Formativ baho o‘quvchilaring bilimini oshirish uchun o‘tkaziladi. Aksincha summmativ baho o‘quvchilar faoliyatini baholash uchun o‘tkaziladi.

6. Formativ baho o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish uchun qabul qilingan. Summmativ baholashdan farqli o‘laroq o‘quvchilar bilimini baholashga qaratilgan.

7. Formativ baholash baholari ummatifik bahodan kam, chunki FAda olingan baholar o‘quvchining tushunarli ekanligi haqida SA ning baholari o‘quvchilarning ko‘tarilishi yoki ko‘tarilmasligini belgilaydi.[4]

O‘z-o‘zini baholash

O‘z-o‘zini baholash o‘quvchining o‘z faoliyati va natijasini mustaqil tahlil qilishiga yordam beradi. Bu usul orqali bolada mas’uliyat, mustaqillik va refleksiya ko‘nikmalari shakllanadi. Muayyan vazifada o‘zining kuchli va zaif tomonlarini baholash, birgalikda baholash, qiyinchilikka ishonch hosil qilish uchun muhim vositadir. Agar biz ijobiy natijaga erishmoqchi bo‘lsak, qulay xulosalar chiqarish va shunga muvofiq harakat qilish uchun o‘z-o‘zini baholashni amalga oshirish muhimdir.[5]

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga quyidagi savollar berilishi mumkin:

Men bugun nimani o‘rgandim?

Menga nima oson bo‘ldi?

Menga nima qiyin bo‘ldi?

Qaysi topshiriqni yaxshi bajardim?

---

[3] Academic Research in Educational Sciences
ISSN: 2181-1385
DOI:10.24412/2181-1385-2022-2-870-876
O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR Dilnoza Oxunova
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

[4] O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR Dilnoza Oxunova
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

[5] O‘z-o‘zini baholash: ish faoliyatini yaxshilash uchun ushbu usuldan foydalaning. Htttps://plog. Cognisit.com.

Keyingi darsda nimani yaxshilashim kerak?

Bunday savollar o‘quvchini o‘z ta’lim faoliyatiga ongli munosabatda bo‘lishga undaydi.

O‘zaro baholash

O‘zaro baholashda o‘quvchilar bir-birlarining ishlarini belgilangan mezonlar asosida baholaydilar. Bu jarayonda o‘quvchilar nafaqat o‘z bilimlarini, balki sinfdoshlarining ishlarini tahlil qilish orqali ham yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Masalan:

bir o‘quvchi topshiriqni bajaradi;

boshqa o‘quvchi uning ishini tekshiradi;

yaxshi va kamchilik tomonlarini ko‘rsatadi;

mezon asosida ball yoki baho beradi.

Natijada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, xolis baholash va o‘z xatolarini anglash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Portfolio usuli

Portfolio — o‘quvchining ma’lum vaqt davomida bajargan ishlari va erishgan natijalarini jamlab borish usulidir. Portfolio yordamida o‘quvchining faqat bir martalik natijasi emas, balki rivojlanish dinamikasi ham kuzatiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining portfoliosiga quyidagilar kiritilishi mumkin:

Ijodiy ishllar; rasmlar; yozma topshiriqlar; loyihalar; o‘quvchining erishgan yutuqlari; o‘qituvchining tavsiyalari; va h.k.

Portfolio usuli o‘quvchini yillar davomidi qanday natijalarga erishganligi, bilimi qay darajada o‘sib kelayotganligi haqida ma’lumot beradi.

Raqamli baholash platformalari

Ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan baholash o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlash, ularning o‘zlashtirish darajasini o‘lchash, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida samarali aloqa o‘rnatish uchun xizmat qiladi. An’anaviy baholash uslublari (yozma imtihonlar, og‘zaki so‘rovlar, kundalik kuzatuvlar) ma’lum darajada foydali bo‘lishiga qaramay, ular subyektivlik, vaqt sarfi, umumlashtirishdagi noaniqliklar va inson omiliga bog‘liq xatoliklar bilan bog‘liq muammolarga ega. Ayniqsa, zamonaviy ta’limda individual yondashuv, tezkor tahlil va shaffoflik talab etilar ekan, an’anaviy uslublar o‘z-o‘zidan yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan raqamli baholash platformalari ta’lim jarayonining sifatini oshirish, samaradorligini kuchaytirish va shaffoflikni ta’minlashda muhim vosita sifatida maydonga chiqdi. Ushbu platformalar o‘z ichiga turli funksiyalarni qamrab olgan, ma’lumotlarga asoslangan avtomatlashtirilgan tizimlar bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari elektron shaklda baholanadi, tahlil qilinadi va saqlanadi.[6]

Boshlang‘ich sinflarda raqamli baholashdan foydalanishda topshiriqlarning sodda, tushunarli va qiziqarli bo‘lishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Interaktivlik: Testlar, viktorinalar, multimedia elementlari orqali o‘quvchilarni jalb qilish osonlashadi, bu esa motivatsiyani oshiradi. Va albatta shaffoflik va xolislik. Inson omilining kamayishi baholash jarayonidaadolatlilikni ta’minlashga yordam beradi.

[6] “FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES”[33]RAQAMLI BAHOLASH PLATFORMALARI: SUN‘IY INTELLEKT ORQALI O‘QUV JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH
Davlatov Akrom Olimovich Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi O’quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko’rsatishboshqarmasi bosh mutaxassisi

Raqamli baholash platformalarining ta’limga ta’siri.

Ushbu platformalar nafaqat baholash jarayonini optimallashtiradi, balki ta’limning boshqa muhim jihatlariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilarga ko‘proq tahliliy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. O‘quvchilarning o‘zlashtirishdagi muammolarini erta aniqlash va ularga moslashtirilgan yondashuvni qo‘llashni ta’minlaydi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda baholashning zamonaviy usullarini tatbiq etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy baholash o‘quvchining faqat yakuniy natijasini aniqlashga emas, balki uning o‘quv jarayonidagi rivojlanishini kuzatish, qiyinchiliklarini aniqlash va keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Formativ baholash, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, portfolio va raqamli baholash vositalaridan oqilona foydalanish o‘quvchilarda mustaqillik, mas’uliyat, refleksiya va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, zamonaviy baholash o‘qituvchi uchun ham muhim pedagogik vosita bo‘lib, u orqali o‘qituvchi ta’lim jarayonining samaradorligini tahlil qiladi va o‘z metodikasini takomillashtiradi. Demak, baholashni “natijani qayd etish” vositasidan “o‘quvchini rivojlantirish” vositasiga aylantirish boshlang‘ich ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.(12-15-betlar)
2. Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longmans, 1956.(185-bet)
3. Academic Research in Educational Sciences
4. ISSN: 2181-1385 DOI:10.24412/2181-1385-2022-2-870-876 O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR Dilnoza Oxunova
5. Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
6. O‘z-o‘zini baholash: ish faoliyatini yaxshilash uchun ushbu usuldan foydalaning. Htttps://plog. Cognisit.com.
7. “FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES”(33)RAQAMLI BAHOLASH PLATFORMALARI: SUN‘IY INTELLEKT
8. ORQALI O‘QUV JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH Davlatov Akrom Olimovich Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi O’quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko’rsatishboshqarmasi bosh mutaxassisi
9. Black, P., Wiliam, D. Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education, 1998.